

---

## TAYINLOV



Mo'ydinova Muxabatxon Axmadjonovna Qo'shtepa tumani hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi lavozimiga tayinlandi.

Muxabatxon Mo'ydinova 1963 yilda Qo'shtepa tumanida tug'ilgan. 1985 yilda Farg'ona davlat pedagogika institutini tamomlagan.

Muxabatxon Mo'ydinova 1985-2002 yillarda Qo'shtepa tumanidagi 27-umumta'lim maktabi direktor o'rinbosari, 2002-2004 yillarda 27-umumta'lim maktabi direktori, 2004-2018 yillarda Qo'shtepa tumani hokimining o'rinbosari, Xotin-qizlar qo'mitasi raisi lavozimlarida faoliyat olib borgan.

Tayinlovga qadar Qo'shtepa tumani mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'ining Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish bo'yicha birinchi o'rinbosari, tuman hokimining xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahatchisi lavozimida ishlagan.

Oilali, turmush o'rtog'i - Qo'shtepa tumanidagi 27-umumta'lim maktabining fizika fani o'qituvchi, ikki nafar farzandi bor.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook,](#)

2022-03-31 20:40:11